



Bo'Lajak Ofitserlarda Fuqarolik Kompetensiyasini Takomillashtirishning Pedagogik Jihatlarini

Xaydarov Kozimbek Abdixakimovich, O'zbekiston milliy universiteti

Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi boshlig'i, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, polkovnik

Аннотация. В данной статье рассматривается профессиональная компетентность педагога и ее специфические особенности.

Ключевые слова: гражданская компетентность, профессионализм, профессиональные качества, педагогика, компетентность, курсант.

Annotation. Ushbu maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: fuqarolik kompetensiyasi, kasbiy mahorat, kasbiy sifatlar, pedagogika, kompetentsiya, kursant.

Abstract. This article discusses the professional competence of a teacher and its specific features.

Key words: civic competence, professionalism, professional qualities, pedagogy, competence, cadet.

Zamonaviy sharoitda respublikada jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun bo'lajak ofitserlarda fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirishning maqbul usullarini tanlash bo'yicha pedagogik imkoniyatlar keng joriy etilmoqda. "Yangi O'zbekistonni 2022-2026 yillarda rivojlantirish strategiyasi"da "yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash..." [1] kabi vazifalarni belgilanganligi bo'lajak ofitserlarda fuqarolik kompetensiyalarini takomillashtirish ehtiyojini yanada oshiradi. Buning uchun bugungi qiyinchiliklarni samarali bartaraf etishga qodir bo'lgan milliy armiya asoslarini yanada mustahkamlash zarur.

Insonga ko'p qutbli dunyoni bilish, unda harakat qilish, yashash va boshqalar bilan birga yashashni o'rganish imkoniyatini beradigan ta'lim haqida so'z yuritiladi.

Ta'lim tizimi har bir shaxsning iste'dodi va salohiyatini yuzaga chiqarishga ko'maklashishi, shaxsning rivojlanishini rag'batlantirishi, odamlar o'z hayotini yaxshilashi, jamiyatni o'zgartirishi mumkinligi ta'kidlandi.

YUNESKO, UNISEF, BMTTD va Jahon banki hukumatlarni uchta asosiy maqsadga erishish uchun harajatlar hisobini qayta yaratishni taklif qildi va "Ta'lim hamma uchun" strategiyasini amalga oshirishning o'n yillik hisobotini yakunladi.

Ta'lim turli globallashtirish jarayonlarini boshidan kechirayotgan XXI asrda insonlarning jamiyat hayoti va iqtisodiyotida samarali ishtirok etishining zarur vositasi sifatida xizmat qiladi. Jomtien va Dakar forumlari tomonidan ta'lim sohasida ishlab chiqilgan tamoyillar 1998 yilda Parijda YUNESKO tomonidan o'tkazilgan oliy ta'lim bo'yicha Butunjahon konferensiyasi g'oyalari va yo'riqnomalari bilan uzviy ravishda to'ldirilib, unda ijtimoiy, shaxsiy, ma'naviy-axloqiy munosabatlarning zaiflashuvidan jiddiy xavotir bildirilgan. Ushbu forum barcha mamlakatlar hukumatlariga oliy ta'limning mavjudligi va uni olish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashni ta'lim siyosatining yetakchi yo'nalishiga aylantirishni tavsiya qildi.



1948 yil dekabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida qabul qilingan Inson huquqlari va erkinliklari umumjahon deklaratsiyasida har bir insonning ta'lim olish huquqi e'tirof etilgan va kamsitilmaslik tamoyili tasdiqlangan. Ta'lim sohasida har qanday kamsitish inson huquqlarining buzilishi ekanligi ta'kidlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta'limni rag'batlantirishni nafaqat munosib va asosiy maqsad, balki odamlar ongida tinchlik poydevorini yaratish vositasi sifatida ko'radi.

Uyimiz va oilalarimizda totuvlik, bag'rikenglik, o'zaro tushunish va tinchlikni o'rgatmagunimizcha va o'rganmagunimizcha, jamiyatimizda bu qadriyatlarni hayotga tatbiq etishga tayyor bo'lolmaymiz. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlari va tashabbuslari tufayli, xususan, ta'lim sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda [2].

2008-yil 12-sentyabrda respublika hukumati tomonidan XMTning mazkur Konvensiyalarini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi qabul qilindi, uning asosida davlat organlari, ish beruvchilar va ota-onalarning qonun oldidagi javobgarligi va amaliyoti ushbu Konvensiyalarga muvofiqlashtirildi.

Shunga asoslanib, jamiyatimizda jamiyatdagi tub o'zgarishlar bilan bir qatorda shaxsning milliy va jahon madaniyatiga integratsiyalashuviga ko'maklashishga qaratilgan yangi ta'lim tizimini rivojlantirish vazifalari belgilangan.

Bugungi kunda respublikaning oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni Umumharbiy nizomlarga tayangan holda bir-biriga nisbatan e'tiborli munosabatda bo'lishini shakllantirish zarur. Fuqarolik kompetentsiyasining ushbu funksiyalari ma'lum bir shaxsning muayyan sharoitlarda hatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, bu uning fuqarolik kompetentsiyasining pedagogik jihatlarini ko'rib chiqish masalasining dolzarbligini asoslaydi. Fuqarolik kompetentsiyasini, ma'naviyatni, jamiyatda muvaffaqiyatli sotsializatsiya qilish qobiliyati va ko'nikmalarini takomillashtirishning eng muhim vazifasini hal qilish uchun kursantlar fikrlash doirasining kengligi va malakali kadrlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimga ega bo'lishlari kerak.

Bu sohada bizga S.U. Xodjaniyazovning fikri ma'qul keldi: "xalqaro hamkorlikning kengayishi, ayniqsa, akademik harakatchanlik dasturlari kabi xalqarolashtirishning muhim jihati, zamonaviy oliy ta'lim rivojlanishining asosiy tendentsiyalaridan biri bo'lib, oliy ta'lim muassasalari uchun ta'limni tashkil etish texnologiyasiga turli yondashuvlarni hisobga olish va o'zaro muvofiqlashtirish muammosini keskin keltirib chiqarmoqda" [3, 534-b.].

Mazkur fikrdan kelib chiqib, biz zamonaviy kadrlar tayyorlashning bu jihati dunyoning barcha mamlakatlarida keng rivojlanganligiga guvoh bo'ldik. Mamlakatimizda hozirgi davrning o'ziga xosligi, butun davlat tizimi, jamiyat hayoti va ular bilan birga oliy ta'lim tizimi modernizatsiya qilingani, bu boradagi muammolarni hal etishga qaratilganligi bilan bog'liq raqobatbardosh, zamon talablariga javob beradigan mutaxassis bo'lib yetishishi bizning maqsadimizdir. Davlatimizdagi ijtimoiy-siyosiy iqlimning o'zgarishi, uning iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga yo'naltirilganligi, barcha tarmoqlarining rivojlanishi, umumiy shart-sharoitlar ushbu tarixiy davrda oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy omili sifatida O'zbekiston fuqarolarining yangi avlodini shakllantirish zaruratini belgilab beradi. Bugungi kunda yangi avlod bir qancha qobiliyatga ega bo'lishi talab qilinmoqda. Masalan, "kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga bugungi kunda hamma sohada keng qo'llanilmoqda. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.



Fuqarolik kompetensiyasi – fuqaro tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi hisoblanadi.

Fuqarolik kompetensiyasi kursant tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya kursantning bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Fuqarolik kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakalarni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, kursantlar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta‘lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma‘lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – kasbiy faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – kasbiy jarayonni takomillashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash, milliy tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, kursantlar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar: tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqanda, nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

O‘zbekistonda kursantning fuqarolik kompetentligi, uning o‘ziga xos pedagogik jihatlarini o‘rganish jarayonida, biz qo‘yidagi masalalarga e‘tibor qaratdik:

fuqarolik kompetentlikka ega bo‘lishda kursant o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga egaligini ta‘kidlaydi;

kursant o‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi;

o‘z ustida ishlash – kursantning izchil ravishda o‘zining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etadi;



o'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi: kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirib borish; faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish; kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish; ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish; salbiy odatlarni bartaraf etib borish; ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Mazkur jarayon bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Ular qatorida: kursantlarda fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida aniq maqsad belgilanishi, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirishi; pedagogik jarayon samaradorligini amalga oshirishi, o'zining ishchanlik faolligini oshirishi; izchil ravishda yangilanib borayotgan bilimlarni o'zlashtirishi; ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish; faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etishi; kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirishini ifodalaydi.

Bo'lajak ofitserlarda fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirining pedagogik modelini qo'llash, fuqarolarni turli tahdidlardan himoya qilish maqsadida shaxsni himoya qilish, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan amaliy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib olib borish. Kompleks yondashuv asosida bo'lajak ofitserlarda fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha texnologiyalarni qo'llash, jamiyatimizda qabul qilingan shaxsning ma'naviy-axloqiy meyorlarini o'rganish, ularning faoliyatini samarali tashkil etish uchun bilim va ko'nikmalarni qo'llash maqsadida normativ-huquqiy ta'minotni takomillashtirishi mumkin bo'lgan ushbu sohada malakali mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur.

Bugungi kunda fuqarolarni mamlakatning ma'naviy-siyosiy qadriyatlariga sadoqatini ta'minlash, ularda ushbu qadriyatlarni asrab-avaylash va himoya qilish qobiliyati va tayyorgarligini rivojlantirishi mumkin bo'lgan yagona ijtimoiy kontekst har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bo'lajak ofitserlarda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish murakkab bo'lib, ularning kundalik kelajakdagi kasbiy faoliyatida fuqarolik shaxsiy pozitsiyasini namoyon etish imkoniyatini beradi.

Bo'lajak ofitserlarning fuqarolik kompetensiyasining mazmuni umuminsoniy qadriyatlarni biladigan, fuqarolik mas'uliyatga ega, o'z huquq va majburiyatlarini biladigan, ularni hayot jarayonida to'g'ri qo'llaydigan kursantning ma'naviy, axloqiy va shaxsiy fazilatlarini o'rganish va asoslashni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПК-60-сон “Янги Ўзбекистонни 2022-2026 йилдаги ривожлантириш стратегияси” Фармони // Халқ сўзи. – Тошкент, 2022. – 29 январь. – Б. 1-2.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
3. Ходжаниязов С.У. Практическая реализация опыта европейской кредитной технологии обучения в условиях Узбекистана // Молодой учёный. – Чита, 2012. – № 5(40). – С. 534-536.